



# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib




## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **11052,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,9 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **947,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **68,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **10105,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1296,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **77,5 %**)

## Tarkibiy qism, ulushlarda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm




# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **11052.6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **2,9 %** ga kamaydi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,4 %** va yirik korxonalar hissasiga **8,6 %** to'g'ri keldi.



## ENG YUQORI ULUSH


Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani **24,1 %** ulush bilan **2 659,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,5 %** ulush bilan **53,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.




## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **1,0 %** ga ko'paydi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **91,4 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Muzrabot (98,8 %), Uzun (98,2), Qiziriq ( 97,9 %), Qumqo'rg'on (97,9 %), Boysun (97,3 %), Bandixon (96,6 %), Oltinsoy (96,6 %) va Angor (96,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Bandixon (209,8 %) Denov (106,4 %) va Sho'rchi (101,0 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>11052,6</b>	<b>97,1</b>	<b>947,6</b>	<b>68,8</b>	<b>10 105,0</b>	<b>101,0</b>
<b>Termiz shahri</b>	<b>2171,8</b>	<b>89,3</b>	<b>594,4</b>	<b>54,8</b>	<b>1 577,4</b>	<b>117,1</b>
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	552,7	94,8	18,8	146,7	533,9	93,6
Angor	428,8	97,8	14,9	95,0	413,9	97,9
Bandixon	53,8	2,1 m	1,8		52,0	2,0 p
Boysun	467,0	97,5	12,8	61,5	454,2	99,1
Muzrabot	505,1	90,0	6,2	3,0 m	498,9	89,3
Denov	2659,8	106,4	118,9	186,1	2540,9	104,4
Jarqo'rg'on	575,4	92,0	27,5	96,8	547,9	91,8
Qumqo'rg'on	530,8	95,6	11,0	64,3	519,8	96,6
Qiziriq	467,8	91,3	10	70,8	457,8	91,9
Sariosiyo	570,9	98,4	24,8	112,5	546,1	97,9
Termiz	193,5	92,1	30,4	76,5	163,1	95,7
Uzun	374,3	95,9	6,8	2,1 m	367,5	95,0
Sherobod	537,5	99,1	21,6	88,2	515,9	99,6
Sho'rchi	963,4	101,0	47,7	160,9	915,7	99,0

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **31,2 %** ga kamaydi va **947,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,6 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **10 105.1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **1,0 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,4 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (98,8 %), Uzun (98,2 %), Qumqo'rg'on (97,9 %), Qiziriq (97,9 %), Boysun (97,3 %) Bandixon (96,6 %), va Oltinsoy (96,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (27,4 %), Termiz (15,7 %), Sho'rchi (5,0 %) va Jarqo'rg'on (4,8 %) tumanlarida kuzatildi.



**SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON  
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 173,6** ming so'm (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 5,0 % ga kamaydi).

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz shahri (12 012,1 ming so'm), Denov (6 885,3 ming so'm) va Sho'rchi (4 600,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	<b>4 173,6</b>	<b>95,0</b>
Termiz sh.	12 012,1	71,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	3 119,1	92,9
Angor	3 231,0	95,9
Bandixon	715,1	190,3
Boysun	4 029,1	99,7
Muzrabot	3 557,2	88,4
Denov	6 885,3	101,7
Jarqo'rg'on	2 630,0	90,4
Qumqo'rg'on	2 259,8	101,8
Qiziriq	4 096,4	82,6
Sariosiyo	2 717,5	95,8
Termiz	2 500,6	128,2
Uzun	2 177,3	94,3
Sherobod	2 767,7	97,2
Sho'rchi	4 600,6	99,6


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1296,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **22,5 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **615,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **76,1 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **680,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **78,9 %**) tashkil etdi.


### Asosiy tarkib, foizda




### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **615,6** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **680,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1296,2</b>	<b>77,5</b>	<b>615,6</b>	<b>76,1</b>	<b>680,6</b>	<b>78,9</b>
<b>Termiz sh.</b>	75,3	80,1	75,3	80,1		
<i>tumanlar:</i>						
<b>Oltinsoy</b>	134,4	77,2	75	90,5	59,4	47,3
<b>Angor</b>	56,2	75,0	31,1	55,9	25,1	48,2
<b>Bandixon</b>	26,0		4,2		21,8	
<b>Boysun</b>	96,1	87,4	39,3	62,6	56,8	67,8
<b>Muzrabot</b>	142,9	69,6	40,1	50,9	102,8	65,8
<b>Denov</b>	144,6	72,6	113,8	81,3	30,8	29,7
<b>Jarqo'rg'on</b>	73,7	58,9	41,5	61,6	32,2	40,6
<b>Qumqo'rg'on</b>	114	81,1	66	135,4	48,0	32,9
<b>Qiziriq</b>	75,1	64,2	16,5	32,6	58,6	65,1
<b>Sariosiyo</b>	168,2	93,1	27,4	72,1	140,8	96,1
<b>Termiz</b>	30,6	82,0	1,2	63,5	29,4	90,6
<b>Uzun</b>	40,1	65,1	22,7	89,2	17,4	26,5
<b>Sherobod</b>	26,3	65,2	24	84,1	2,3	35,2
<b>Sho'rchi</b>	92,7	82,9	37,5	75,1	55,2	88,1

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



9,3  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



255,2  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



25,8  
mlrd. so'm

Qurilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari

(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

77,0  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



25,2  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

35,0  
mlrd. so'm



Tuxum

115,5  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

20,6  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

6,7  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

7,4  
mlrd. so'm



Ziravorlar

37,9  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **615,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**255,2** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **680,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **504,2** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **156,8** mlrd. so'mni, otlar **15,1** mlrd. so'mni, parrandalar **4,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,7 % ni tashkil etib, 183,8 mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 12,3 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**




	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	183,8	87,7	19,0	79,5	164,8	84,6
Termiz sh.	65,8	98,4	0,2	52,8	65,6	94,1
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	4,3	80,8	-		4,3	77,1
Angor	7,8	85,7	-		7,8	81,8
Bandixon	0,4	82,1	-		0,4	78,3
Boysun	4,5	93,4	-		4,5	89
Muzrabot	4,1	76,7	-		4,1	73,1
Denov	24,8	93,1	-		24,8	88,8
Jarqo‘rg‘on	6,3	73,3	-		6,3	82,2
Qumqo‘rg‘on	5,6	84	-		5,6	80,1
Qiziriq	4,4	78,3	-		4,4	74,7
Sariosiyo	23,1	90,7	18,0	93,8	5,1	77,5
Termiz	9,3	58,1	0,8	25,5	8,5	62,6
Uzun	4,7	82,7	-	-	4,7	78,9
Sherobod	10,1	80,8	-	-	10,1	77,1
Sho‘rchi	8,6	81,6	-	-	8,6	77,8

## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil  
yanvar- noyabr

2020- yil  
yanvar- noyabr




2019- yil yanvar-noyabr oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,3 % dan 0,1 % ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 183,8 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 87,7 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 183,7 mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,9 %) hamda 0,1 mlrd. so'm (0,1 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.


	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>183 835,3</b>	<b>100,0</b>	<b>183 672,6</b>	<b>99,9</b>	<b>162,7</b>	<b>0,1</b>
<b>Termiz sh.</b>	65 760,4	35,8	65 597,7	99,8	162,7	0,2
<i>tumanlar:</i>						
<b>Oltinsoy</b>	4 351,0	2,4	4 351,0	100,0	-	-
<b>Angor</b>	7 845,0	4,3	7 845,0	100,0	-	-
<b>Bandixon</b>	409,2	0,2	409,2	100,0	-	-
<b>Boysun</b>	4 499,4	2,5	4 499,4	100,0	-	-
<b>Muzrabot</b>	4 117,6	2,2	4 117,6	100,0	-	-
<b>Denov</b>	24 771,3	13,5	24 771,3	100,0	-	-
<b>Jarqo'rg'on</b>	6 325,9	3,4	6 325,9	100,0	-	-
<b>Qumqo'rg'on</b>	5 593,2	3,0	5 593,2	100,0	-	-
<b>Qiziriq</b>	4 444,9	2,4	4 444,9	100,0	-	-
<b>Sariosiyo</b>	23 133,1	12,6	23 133,1	100,0	-	-
<b>Termiz</b>	9 258,3	5,0	9 258,3	100,0	-	-
<b>Uzun</b>	4 663,5	2,6	4 663,5	100,0	-	-
<b>Sherobod</b>	10 056,7	5,5	10 056,7	100,0	-	-
<b>Sho'rchi</b>	8 605,8	4,7	8 605,8	100,0	-	-

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 652,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan **0,7 %** ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **966,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,0 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 685,9** mlrd. so'mni (**3,5 %** ga kamayish), tashkil etdi.


## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



## Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Bandixon (3,2 m) va Qumqo'rg'on (148,7%), Sariosiyo tumanlarida (116,0%) kuzatildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2652,5	100,7	966,6	109	1685,9	96,5
Termiz sh.	744,9	100,1	255,1	86,4	489,8	109,1
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	62,7	71,5	41,1	81,6	21,6	58,0
Angor	78,7	76,8	7,4	44,2	71,3	83,2
Bandixon	8,2	3,2 m	6,4		1,8	71,3
Boysun	19,2	78,9	1,5	117,5	17,7	76,9
Muzrabot	74,1	81,7	66	82,1	8,1	78,7
Denov	650,2	109,5	116,8	107,9	533,4	109,8
Jarqo'rg'on	278,3	100,2	164,4	123,0	113,9	79,0
Qumqo'rg'on	158,8	148,7	128,1	197,7	30,7	73,0
Qiziriq	78,9	95,4	48,1	115,2	30,8	75,2
Sariosiyo	184,0	116,0	62,9	5,1 p	121,1	82,8
Termiz	154,1	89,0	5,7	37,4	148,4	94,0
Uzun	22,4	64,1	5,5	65,7	16,9	63,6
Sherobod	61,4	71,0	20,7	52,8	40,7	86,1

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, **1 685,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,5 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 63,6 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Termiz (96,3 %), Boysun (92,4 %), Angor (90,6 %) , Denov (82,0 %) , Uzun (75,3 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.

